



UO'T: 632.76:631.563(575.1)

## URUG'LIK VA QURITILGAN MAHSULOTLARNI SAQLASH DAVRIDA UCHRAYDIGAN SURINAM UNXO'RINING ZARARLILIK DARAJASI

Avazov Sanjar Salimjonovich 

tayanch doktorant

Obidjanov Dilshod Axmed Xuja o'g'li 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zahiradagi qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanayotgan quritilgan mevalar (magiz, turshak, olma qoqilari), g'alla, donlilar, poliz ekini urug'larda uchraydigan ombor zararkunandalarining tur-tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar davomida respublika boylab zaxira mahsulotlari saqlanadigan omborxonalarda monitoring olib borish va o'rganish jarayonida zaxira mahsulotlariga *surinam unxo'ri* (*Oryzaephilus surinamensis* L., zararkunandasi zarari ma'lumotlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** monitoring, zararkunanda, hasharot, quritilgan mahsulot, zaxira, kosmopolit, murtag, entomologiya, kuzatish, taqqoslash.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о видовом составе складских вредителей, встречающихся в семенах сухофруктов (макаров, кураги, сушеных яблок), зерновых, зерновых и бахчевых культур, хранящихся в запасах сельскохозяйственной продукции. В ходе исследований в процессе мониторинга и изучения на складах, где хранятся запасные продукты по всей республике, приведены данные о вредоносности суринамского мучнистого жука (*Oryzaephilus surinamensis* L.) для запасных продуктов.

**Ключевые слова:** мониторинг, вредитель, насекомое, сушеный продукт, запас, космополит, зародыш, энтомология, наблюдение, сравнение.

**Abstract.** This article presents information on the species composition of warehouse pests found in the seeds of dried fruits (makar, dried apricots, dried apples), cereals, grains, vegetables, and melons stored in agricultural product stocks. During the research, during monitoring and study at warehouses where stock products are stored throughout the republic, data were provided on the harmfulness of the Surinamese flour beetle (*Oryzaephilus surinamensis* L.) to stock products.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

**Key words:** Keywords: monitoring, pest, insect, dried product, reserve, cosmopolitan, embryo, entomology, observation, comparison.

### KIRISH

Dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat yetishtirish, balki ularni saqlash davrida zararkunandalardan himoya qilish strategik ahamiyatga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlarga ko'ra (FAO, 2023), har yili yetishtirilgan don mahsulotlarining 5-10% qismi (taxminan 80-150 mln tonna) va quritilgan mevalarning 15-20% qismi ombor zararkunandalari tomonidan zararlanadi.

Ombor zararkunandalari - zaxiradagi mahsulotlarning ashaddiy zararkunandalari bo'lib, ular katta guruxni tashkil qiladi, dunyodagi mavjud.

Zaxirada saqlanadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari himoyasi bugungi kunda dunyo miqyosida jiddiy ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.

Ushbu zararkunandalar orasida surinam unxo'ri (*O.surinamensis*) o'zining kosmopolit tabiati, yuqori darajadagi moslashuvchanligi va mahsulotlarning ham vazni, ham sifatiga (protein miqdorini 51.2% gacha kamaytirishi) ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonning eksport salohiyatida muhim o'rin tutuvchi quritilgan mevalar (mayiz, turshak) va saqlanayotgan bug'doy zaxiralarini ushbu zararkunandadan himoya qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Ombor zararkunandalarining tur-tarkibi juda keng va turli tumandir. Ular hasharotlar, kanalar, sichqonsimon kemiruvchilar va boshqalardir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, tashish va boshqa jarayonlarda zarar keltiradigan turlari kosmopolit bo'lib yer shari bo'ylab keng tarqalgan va chunochi ular un mitalari, unxo'rlar, uzunburun qo'ng'izlar, terixo'rlar, kapalaklar, kanalar va boshqalardan iborat.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, tashish va boshqa jarayonlarda zarar keltiradigan turlari kosmopolit bo'lib yer shari bo'ylab keng tarqalgan va chunochi ular un mitalari, unxo'rlar, uzunburun qo'ng'izlar, terixo'rlar, kapalaklar, kanalar va boshqalardan iborat.

Ombor zararkunandalarining tur-tarkibi juda keng va turli tumandir. Ular ichida eng ko'p zarar yetkazadiganlari surinam unxo'ri (*O.surinamensis*) hisoblanadi.

Surinam unxo'ri (*O.surinamensis*) zararkunandasi omborlar, elevatorlar, tegirmonlar, konditer mahsulotlari fabrikalari va boshqa joylarda keng tarqalgan bo'lib, zaxira mahsulotlari saqlanadigan omborxonalarda uchraydi.

Surinam unxo'ri zaxiradagi qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanayotgan urug'liklar, g'alla, donlilar, chigitlar, quritilgan mevalar (magiz, turshak, olma qoqilari), quruq sabzavotlar va boshqa mahsulotlarni hasharot, kana, sichqonsimon kemiruvchilar va boshqa zararli organizmlardan himoya qilish insoniyatta taalluqli o'ta dolzarb muammodir.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI


Surinam unxo'ri zararkunandadi oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini nobud qiladi, donning murtagi va unli qismini yeydi natijada g'alla va boshqa uzoq saqlanmaydi, ularning ozuqalik sifatini buzadi, urug'larni shikastlab, unuvchanligini keskin kamaytiradi.

### MATERIALLAR VA USULLAR


Tadqiqot ishlari umumiy entomologiya hamda qishloq xo'jaligi entomologiyasida keng qo'llaniladigan kuzatish, taqqoslash va matematik statistik tahlil usullari yordamida bajarildi. Ombor zararkunandalar turini aniqlash N.M. Maxmudxodjayev qo'llanmalari asosida, entomologik hisoblar va kuzatuvlarda G.Ya. Bey-Bienko uslubidan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqotlar davomida Toshkent viloyatu boylab zaxira mahsulotlari saqlanadigan omborxonalarda monitoring olib borilganda va o'rganilganda surinam unxo'ri (*O.surinamensis*), zararkunandasi omborlarda saqlanayotgan poliz ekini urug'lari, quritilgan mevalarda zarar keltirishi aniqlandi.



1-rasm Surinam unxo'ri tomonidan poliz urug'larning zararlanishi



2-rasm Surinam unxo'ri tomonidan quritilgan mahsulotlarni zararlanishi



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

### XULOSA

Tadqiqot olib borilgan zaxira mahsulotlari quritilgan mevalar (magiz, turshak, olma qoqilari), poliz ekini urug' (oshqovoq, qovun, tarvuz urug'i)lar saqlanadigan omborxonalarda surinam unxo'ri (*O.surinamensis*) asosiy zararkunandasi ekanligi qayd qilindi.

Surinam unxo'ri quritilgan mevalarni saqlash jarayonida mahsulot sifatiga sezilarli darajada zarar yetkazishini kuzatilgi, quritilgan o'rikni 34,9%, quritilgan olmani 27,6%, quritilgan mayizni 20,2% zararlashi qayd etildi.

Poliz ekini urug'laridan oshqovoq urug'ini 44,2 %, qovun urug'ini 37,5%, tarvuz urug'ini esa 29,8% zararlashi qayd etildi.

### ADABIYOTLAR

1. Н.М.Махмудходжаев Захира маҳсулотлари зараркунандалари ва уларга қарши кураш Захира маҳсулотлари зараркунандалари ва уларга қарши кураш. Ўқув қўлланма. – Ташкент. 2016. – Б. 34-36.

2. Н.М.Махмудхўжаев Теоретическое обоснование формирования фауны вредителей запасов, – Ташкент. Фан, 2011. 135 с.

3. Н.М.Махмудходжаев Захира маҳсулотлари зараркунандалари ва уларга қарши кураш Захира маҳсулотлари зараркунандалари ва уларга қарши кураш. Ўқув қўлланма. – Ташкент. 2016. – 98 б.

4. М.Абдуллаев, Г.Закладной. Дон захиралари зараркунандалари ва уларга ыарши курашиш профилактик чоралари. – Ташкент. 2001 й. – 57 б.

5. X.X.Kimsanbaev, N.B.Jumaboeva. “Omborxona zararli organizmlariga qarshi kurashish” Qo‘llanma. – Toshkent, 2022 y. – B. 19-20.

6. Nurul Huda A, Noor Amni M. Food Preference of *Oryzaephilus Surinamensis* (Coleoptera: Silvanidae) to Different Types of Plant Products. Malaysian Journal of Halal Research Journal 2019, VOLUME 2, ISSUE 2 Doi: 10.2478/mjhr-2019-0015. – P. 53-57.

7. Ahmed Mohamed Ezzat Abd El-Salam, Sadek Abd elwahed Salem and Ragab Shaker Abdel-Rahman. Fumigant and toxic activity of some aromatic oils for protecting dry dates from *Oryzaephilus surinamensis*(L.) (Coleoptera: Silvanidae) in stores. Bulletin of the National Research Centre; Berlin Volume 43, Edition 1, (Dec 2019). DOI:10.1186/s42269-019-0101-2. – P. 6.

8. Е.А.Соколов, Вредители запасов, их карантинное значение и меры борьбы, – Оренбург 2004. – С. 74-75.

9. <http://www.cnshb.ru/AKDiL/0038/base/k0550003.shtm>

